

O'ZBEK VA RUS TILLARIDA MORFOLOGIK QURILISHIDA FE'L
SHAKLLARINING TAQQOSLANISHI

Andijon Davlat chet tillari
instituti,
talabasi **Botirova Ruxshona**
Akmaljon qizi
Ilmiy maslahatchi: **Abdullayev**
Sirojiddin Shaxsultanovich

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek va rus tillaridagi fe'l shakllarining morfologik qurilishi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Har ikki tilning grammatik tizimi, xususan zamon, mayl, shaxs-son kategoriyalarida fe'lning qanday morfologik vositalar bilan ifodalanishi aniqlanadi. Qiyosiy-tipologik tahlil orqali o'xshashliklar va farqlar, shuningdek, ularning til o'rganish va tarjima jarayonlariga ta'siri ochib beriladi.

Kalit so'zlar: fe'l, morfologiya, o'zbek tili, rus tili, qiyosiy tahlil, zamon, shaxs - son, mayl.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ морфологического строения глагольных форм в узбекском и русском языках. Определяются морфологические средства выражения времени, наклонения, лица и числа глаголов в грамматической системе обоих языков. Посредством сравнительнотипологического анализа выявляются сходства и различия, а также их влияние на процессы изучения языков и перевода.

Ключевые слова: глагол, морфология, узбекский язык, русский язык, сравнительный анализ, время, лицо и число, наклонение.

Annotation: This article presents a comparative analysis of the morphological structure of verb forms in Uzbek and Russian. It identifies the morphological means used to express tense, mood, person, and number in the grammatical systems of both languages. Through a comparative-typological analysis, the similarities and

differences are revealed, as well as their impact on language learning and translation processes.

Keywords: verb, morphology, Uzbek language, Russian language, comparative analysis, tense, person and number, mood.

Fe'l so'z turkumi har qanday til tizimida asosiy grammatik birliklardan biri hisoblanadi. U nafaqat harakat va holatni ifodalaydi, balki gapning grammatik asosini tashkil etuvchi markaziy vosita sifatida xizmat qiladi. Tilshunos A.I. Smirnitский ta'kidlaganidek, "fe'l grammatikaning zamon, mayl va shaxs-son kabi eng muhim kategoriyalarini mujassamlashtirgan markaziy birlikdir".¹ O'zbek va rus tillarining fe'l tizimi grammatik qurilishi jihatidan sezilarli darajada farqlanadi. O'zbek tili agglutinatив tizimga ega bo'lib, unda grammatik ma'no ketma-ket kelgan qo'shimchalar orqali ochiq, aniq va mustaqil morfemalardan tashkil topadi. Masalan, yuritayotgan edim fe'lida yur- (asos), it (ortirma nisbat qo'shimchasi) -ayotgan (o'tgan zamon qo'shimchasi), - edi (to'liqsiz fe'l), -m (1-shaxs) morfemalari alohida grammatik vazifalarni bajaradi. Rus tilida esa, aksincha, flektiv qurilish asosida grammatik ma'nolar birlashtirilgan shaklda, so'zning ichki morfologik o'zgarishlari orqali ifodalanadi. Masalan, писал shaklida zamon, jins va shaxsni ajratib ko'rsatish morfologik jihatdan murakkabroqdir. Bu esa fe'lning grammatik shakllanish jarayonida ikki til o'rtasidagi sistematik tafovutlarni yuzaga chiqaradi. Bu farqlar tarjima, til o'rgatish, lingvodidaktika va grammatik tahlil sohalarida sezilarli ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bir tilning fe'l tizimini ikkinchisi orqali anglashda grammatik xatolar, semantik o'zgarishlar va uslubiy siljishlar yuzaga kelishi mumkin. Tilshunos M.Y. Blox bunday holatlarni quyidagicha izohlaydi: "Flektiv va agglutinatив tillarning grammatik imkoniyatlarini solishtirish til strukturasi va funkcionalligini chuqur anglashga xizmat qiladi".² Zamonaviy tilshunoslikda morfologik vositalarni qiyosiy tahlil qilish, ayniqsa fe'l shakllarining zamon, shaxs-son, mayl kategoriyalari doirasida o'rganilishi, grammatik o'xshashliklarni aniqlash, til tipologiyasiga oid nazariyalar va

¹ Смирницкий Л.И. Лексикология английского языка – Москва: Издательство литературы на иностранных языках, 1956 - С.89).

² Блох М.Я. Теоретическая грамматика английского языка – Москва: Высшая школа, 1983 – С.73.

uslublarni boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu tahlil ikki til o'rganuvchilari uchun grammatik ko'nikmalarni shakllantirishda ham uslubiy asos bo'la oladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar: Tadqiqotda qiyosiy va tipologik tahlil usullariga asoslanildi. O'zbek va rus tillaridagi fe'l shakllari zamon, shaxs-son va mayl kategoriyalari asosida ko'rib chiqildi. Ma'lumotlar manbai sifatida o'zbek tilidagi

“Hozirgi o'zbek tili” (Baxriddinova, 2020), rus tilidagi «Русская грамматика» (Vinogradov, 1986), shuningdek boshqa amaliy qo'llanmalar va darsliklardan foydalanildi. Tahlil uchun har bir til bo'yicha fe'l shakli tanlab olindi. Morfemik tahlil usuli orqali har bir fe'l shakli ichki grammatik tarkib jihatidan tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida o'zbek va rus tillaridagi fe'l shakllarining morfologik qurilishi zamon, shaxs-son va mayl kategoriyalari doirasida tahlil qilindi va quyidagi asosiy xulosalar aniqlandi.

Birinchidan, zamon kategoriyasi har ikkala tilda mavjud bo'lsa-da, ularning morfologik ifoda usullari tubdan farqlanadi. O'zbek tilida uchta zamon (hozirgi, kelasi, o'tgan) mavjud bo'lib, ular ko'plikda ham, shaxsda ham mustaqil qo'shimchalar orqali ifodalanadi (keladi, kelayapti, kelayotgan edi). Rus tilida esa zamon shakllari asosan fe'l asosining o'zgarishi va flektiv qo'shimchalar yordamida yuzaga chiqadi (приходил, приходит, придёт). Muhimi shuki, rus tilida kelasi zamon ko'pincha yordamchi fe'l bilan ifodalanadi (буду писать), o'zbek tilida esa kelasi zamon “-adi” va shunga o'xshash boshqa bir qator kelasi zamonni ifodalovchi qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Bu grammatik tafovut tarjima jarayonida yoki til o'rganishda qiyinchiliklar tug'diradi, ayniqsa vaqt nuqtai nazaridan harakatning aniqligini anglashda yuzaga keladigan muammolar til o'rganish jarayonining sekinlashuvi va erkin muloqotda fe'l shakllarini to'g'ri qo'llay olmaslikka olib keladi.

Ikkinchidan, shaxs-son kategoriyasi o'zbek tilida shaxs-son qo'shimchalari yordamida fe'lga bevosita qo'shiladi (kelaman, kelasan, keladi), rus tilida esa bu ma'no fe'lning oxiridagi fleksiyalar orqali aniqlanadi (иду, идёшь, идёт). Bunda o'zbek tilidagi tizim aniqligi va ketma-ketligi bilan ajralib turadi, rus tilida esa ayrim hollarda

fe'l shakli subyekt orqali aniqlanadi va so'zning fleksion o'zgarishi yetarli bo'lmasligi mumkin. Bu holat, ayniqsa, o'zbek tilida subyekt tushirilsa ham shaxs aniqligini saqlab qolish imkonini beradi, rus tilida esa subyektni ko'rsatish zarur bo'ladi.

Uchinchidan, mayl kategoriyasi har ikki tilda mavjud bo'lsa-da, ularning ifodalanishida sezilarli farqlar bor. O'zbek tilida xabar mayli (keldi) buyruq - istak mayli (kel, kelsa edi), shart mayli (kelsang) aniq qo'shimchalar bilan beriladi. Rus tilida esa bu mayllar modal fe'llar va kontekst orqali beriladi: masalan, пусть придёт, если бы пришёл, хотел бы прийти kabi shakllar morfologik emas, balki sintaktik yo'l bilan yuzaga chiqadi. Bu esa rus tilida mayl kategoriyasining morfologik jihatdan mustaqil emasligini ko'rsatadi. Tilshunos B.M. Baxriddinova ta'kidlaganidek: "Turkiy tillarda maylning grammatik ifodalanish vositalari mustaqil morfologik birliklar orqali sodda va izchil tarzda beriladi, bu esa ularni morfologik jihatdan tahlil qilishni osonlashtiradi".³Tahlil natijalariga ko'ra, o'zbek tilidagi fe'l shakllari morfemik barqarorlik, izchillik va ochiqligi bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar uni o'rganish va tahlil qilishda qulaylik yaratadi. Rus tili esa, aksincha, grammatik ma'noni kontekst va flektiv shakllar orqali ifodalagani bois, uni o'zlashtirishda murakkablik tug'diradi. Buni M.Y. Blox ham ta'kidlaydi: "Rus tilidagi fe'l shakllarining zamon va mayl bilan bog'liq grammatik vositalari kontekstual xususiyatga ega bo'lib, ko'p hollarda aniq formal belgilar orqali emas, balki ifodaning tarkibiy butunligida yuzaga chiqadi".⁴ Shuningdek, shuni qayd etish lozimki, o'zbek va rus tillari o'rtasidagi bunday morfologik tafovutlar tarjimada adekvatlilik muammosini keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, o'zbek tilidagi turli fe'l shakllari rus tiliga o'girilganda, kontekst va ifoda maqsadi noto'g'ri talqin qilinishi ehtimoli mavjud. Bu esa tarjimon va til o'rganuvchilari uchun grammatik moslikni chuqur tahlil qilish zaruratini tug'diradi. Natijada, fe'l shakllarining qiyosiy morfologik tahlili nafaqat grammatik xususiyatlarni chuqur anglash, balki ikki til orasidagi tipologik farqlarni aniqlash, lingvodidaktik vositalarni takomillashtirish va tarjima amaliyotida aniq metodik yondashuvlar ishlab

³ Baxriddinova B.M Hozirgi o'zbek tili - Toshkent: O'qituvchi, 2020 – 145b

⁴ Блох М.Я Теоретическая грамматика английского языка – Москва: Высшая школа, 1983 – С.86

chiqishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek va rus tillaridagi fe'llarning morfologik tizimlari orasida muhim tarkibiy farqlar mavjudligini ko'rsatdi. O'zbek tili agglutinativ tuzilishga ega bo'lib, grammatik ma'nolar aniq va ketma-ket affikslar orqali ifodalanadi. Rus tili esa flektiv til sifatida grammatik ma'nolarni ko'p hollarda bir morfemada jamlab, kontekst va fleksiyalarga tayangan holda ifodalaydi. Zamon, shaxs-son va mayl kategoriyalari har ikkala tilda mavjud bo'lsa-da, ularning morfologik ifodalanish usullari sezilarli darajada farqlanadi. O'zbek tilida ushbu kategoriyalar mustaqil qo'shimchalar bilan ifodalansa, rus tilida ko'plab hollarda sintaktik qurilmalar, yordamchi fe'llar va fleksiyalardan foydalaniladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi fe'l shakllari morfologik izchilligi va ochiqligi bilan ajralib turadi, bu esa ularni o'rganish va tahlil qilishni yengillashtiradi. Rus tilidagi fe'l shakllari esa ko'proq kontekstga bog'liq bo'lib, ularni to'g'ri anglash va qo'llash uchun kengroq grammatik bilim va tajriba talab qiladi. Ushbu farqlarning chuqur tahlili nafaqat tilshunoslik nazariyasi, balki til o'rgatish va tarjima usullarini takomillashtirish uchun ham muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ikki tildagi fe'l shakllarining qiyosiy o'rganilishi o'zaro o'xshashlik va tafovutlarni aniqlash, grammatik salohiyatni rivojlantirish hamda tarjima jarayonida muvofiqlikni ta'minlashda foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bozorov, O. (1966). "O'zbek tili grammatikasi": Morfologiya. Toshkent: "O'qituvchi".
2. Bozorov, O. (2010). "Hozirgi o'zbek adabiy tili": Morfologiya. Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi".
3. Блох, М.Я. (1983). «Теоретическая грамматика английского языка». Москва: «Высшая школа».
4. Виноградов, В.В. (1986). «Русская грамматика». Москва: «Наука».
5. Nurmonov, A. Mahmudov. N (1995). "O'zbek tilining nazariy grammatikasi". Toshkent: "O'qituvchi".
6. Радченко, Г.К. (1981). "Русская грамматика в сопоставлении с другими языками". Москва: «Наука».

7. Розенталь, Д.Э., Голуб, И.Б. (2005). «Русский язык. Орфография и пунктуация. Справочник». Москва: «Айрис-пресс».
8. Смирницкий, А.И. (1957). «Морфология английского языка». Москва: «Литература».
9. Xodjiyev, A. (1993). “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent: “O‘qituvchi”.
10. Baxriddinova B.M (2020). “Hozirgi o‘zbek tili” . Toshkent: “O‘qituvchi”